

XVIII BOB

QUYQANING HARAKATI

18. 1. Umumiy tushunchalar

Xozirgi davrda daryo va kanallarning tublarini nanoslardan iborat choʻkindilardan tozalashda gidromexanizatsiyadan keng qoʻllanilmoqda. Bundan tashqari, Gidromexanizatsiya togʻ jinslarini qayta ishlashda, koʻmir sanoatida qoʻllanilishi bilan birga gidrotexnik inshootlar qurilishda keng qoʻllaniladi.

Toʻgʻonlar qurilishida toʻgʻon jismini grunt massasini yaratishda yoki yuqorida taʼkidlaganimizdek, sugʻorish kanallarini nanos zarrachalaridan iborat choʻkindi qatlamlaridan tozalashda keng qoʻllaniladi.

Gidromexanizatsiyada grunt lotok orqali transportirovka kilinishi mumkin. Bu *naporsiz gidrotransport* deyiladi. Agar quvurlar orqali transportirovka kilinsa, *naporli gidrotransport* deb yuritiladi.

Suv oqimi tarkibida nihoyatda koʻpmiqdorda nanos zarrachalari boʻlsa, bunday oqim *quyqa* deb yuritiladi. Umuman quyqaoʻz tarkibidagi suv ogʻirligiga nisbatan nanos zarrachalari ogʻirligining % miqdori bilan xarakterlanadi. Bu qattiqmassaning birlik xajmdagi suyuqlikdagi miqdori quyqa konsistensiyasi deb ataladi. Quyqa konsistensiyasi oqimning nanoslar miqdoriga oʻxshash miqdoridir. Quyqa konsistensiyasining quyqa tarkibidagi nanos zarrachalarini birlik xajmdagi suyuqlik miqdoriga nisbatan % miqdori xarakterlaydi. Bu miqdor nanos zarrachalarining geometrik va gidravlik kattaliklari bilan xarakterlanadi. Uning tarkibidagi nanos zarrachalari miqdori va turli jinslilik darajasi transportirovka qilish uchun ishlov beriladigan grungga qarab aniqlanadi.

Yuqoridagi mavzularda oʻrganilganidek, quyqa tarkibidagi nanos zarrachalari, nanos zarrachalari kabi muallaqlashgan holda yoki qisman tub

bo‘ylab goh tubga urilib, goh o‘zan tubidan uzilib, ma’lum bir masofaga ko‘tarilib, ayrim hollarda tub bo‘ylab harakatlanishi mumkin.

Quyqadagi qattiq massa harakati shakli materik kattaligiga, quyqaharakat tezligiga va konsistensiyasiga bog‘liq.

Tajribalar natijasi bir o‘zanda aniq bir tarkibli quyqaharakati shaklining o‘zgarishi uning tezligi o‘zgarishiga bog‘liqligini ko‘rsatgan. Quyqa tarkibidagi nanoslarning muallaqlashishi boshlanishiga mos keluvchi tezligi *muallaqlashtiruvchi tezlik* deb ataladi.

Muallaqlashtiruvchi tezlik kattaligi zarracha kattaligiga, quyqaqattiq materialining solishtirma og‘irligiga, uning konsistensiyasiga va quyqaharakatlanayotgan sistema (pulpovod)ning gidravlik elementlariga bog‘liq muallaqlashtiruvchi tezlikning eng kichik qiymati deb, oqimo‘rtacha tezligining quyqa tarkibidagi nanos zarrachalarining cho‘ka boshlashdan oldingi holatdagi miqdoriga aytiladi – bu taxminan nanos bosmas tezlikka mos keladi. Bu kattalik eksperimental tadqiqotlardan olingan ma’lumotlarni o‘rganish natijasida aniqlanadi. Albatta, quyqaning pulpovoddagi harakati shakli muhim ahamiyatga ega.

Quyqaning o‘rtacha tezligi muallaqlashtiruvchi tezlikdan kichik bo‘lishi, pulpovodda nanos zarrachalarining cho‘kishiga olib kelib, bu o‘z navbatida pulpovodning o‘tkazuvchanligini kamayishi yoki ochiq pulpovodlarning qo‘shilib qolishiga olib keladi.

Nanoszarrachalarining o‘zan tubiga cho‘kishi dastlab ko‘ndalang gryadlarni paydo kilsa, keyin qum to‘lqinlarini shakllantiradi, bu esa pulpovod tubi devorining o‘zgarishiga olib keladi.

Quyqaning tub bo‘ylab harakatidagi energiyaning sarf etilishi, uning muallaq holatdagi harakatidagiga nisbatan ancha yuqoridir.

Bunday vaziyatda oqimnanos zarrachalarini muallaqholatda transportirovka qilganda qanchamiqdorda qo‘shimcha miqdorda energiya sarflashi mumkin, degan savolga javob topish muhim masala hisoblanadi.

N. I. Levi fikriga asosan, oqimqo‘shimcha energiya sarflamaydi, ya’ni quyqa tarkibidagi muallaqnanoszarrachalari napor yo‘qolishiga ta’sir ko‘rsatmaydi, degan xulosa kilingan.

M. A. Velikanov esa qarama-qarshi fikr bildirgan. Suyuqlik oqimi zichligi suyuqlik zichligidan yuqoribo‘lgan nanos zarrachalarini o‘z tarkibida muallaqholatda ushlab turishi uchun qo‘shimcha energiya sarflaydi, degan xulosaga kelgan. Bu qo‘shimcha sarflangan energiya yoki bajarilgan ish qarshilik kuchlariga qo‘shiladi. Muallaq zarrachalaridan to‘yingan oqimning tekis harakatida og‘irlik kuchi qiymat jixatdan qarshilik va qo‘shimcha kuchlar yig‘indisiga teng bo‘ladi va shuning uchun bunday oqimning bir xil chuqurlik va tub nishablikdan o‘rtacha tezligi toza suv oqimi tezligidan kichik bo‘ladi.

V. S. Knoroz tajribalari natijalari naporsiz va naporli muallaqnanoslar bilan to‘yingan quyqalar harakatida, harakatga to‘sqinlik qiluvchi kuchlarni engishgacha quyqa energiyasining kamayishi quyqa konsistensiyasiga bog‘liqbo‘lmay, xuddi shu sharoitdagi toza suvning harakatidagi napor yo‘qolishlariga teng bo‘lishini ko‘rsatgan.

Demak, agar quyqa tarkibidagi nanos zarrachalari muallaqholatda harakatlansa, oqimo‘zani ma’lum masofaga tashiyotganida qo‘shimcha energiya sarflamaydi. Demak, pulpovodlarning gidravlik hisobida quvurlar sistemasining gidravlik hisobini bajarishda ko‘llaniladigan formulalar o‘rinli deb hisoblash mumkin.

Shu sababli, quyqa oqimining muallaqlashtiruvchi tezligini eng kichik qiymati kritik tezlik deb atash qabul kilingan. Agar pulpovoddagi oqimning tezligi kritik tezlikdan kichik bo‘lsa, pulpovodni nanos bosib, qarshilik oshadi va bu qarshilikni engishga sarf bo‘ladigan napor yo‘qolishi ham oshadi.

Bunday pulpovodlarning gidravlik hisobini bajarishda toza suv oqimlari uchun ko‘llaniladigan gidravlik formulalarni qo‘llash mumkin emas.

Lekin V. S. Knoroz va boshka tadqiqotchilarning tajribalari gidrotexnika amaliyoti uchun muhim ahamiyatga egaligini e’tirof etgan holda oqim tarkibida

muallaqholatda harakatlanayotgan nanos zarrachalarining borligi oqim energiyasining yo'qolishiga ta'sir ko'rsatmaydi deb asoslash mumkin emasligini e'tirof etish zarur.

Oqim tarkibida u bilan birga harakatlanayotgan qattiq jism zarrachalari oqimning kinematik strukturasi ta'sir etadi.

V. S. Knoroz tajribalari quyqaning kritik tezlikka teng bo'lgan o'rtacha tezlikdagi harakatida oqimning pastki qismidagi to'yinganlik darajasi ustki qismidagidan ancha yuqoribo'lishini ko'rsatgan. Nanos zarrachalarining bunday taqsimlanishi quyqaning o'rtacha tezligining chuqurlik bo'ylabtaqsimlanishi epyurasiga ta'sir ko'rsatadi. Toz suv oqimi epyurasiga nisbatanquyqa tezligi epyurasining ustki qismi pastga nisbatan oldinga cho'zilgan bo'lib, nosimmetrik shaklda bo'ladi. Oqimning turbulent tartibdagi harakatida napor yo'qolishi turbulent aralashishga bog'liqligi bizga ma'lum. Turbulent aralashishning jadalligiga albatta, quyqa tarkibidagi muallaqholatdagi nanoslar ta'sir ko'rsatadi. Bu o'z navbatida oqim naporining yo'qolishiga ta'sir ko'rsatmasligi mumkin emas.

Pulpovodda harakatlanayotgan quyqaga turbulentning bog'liqlik darajasi aniqo'rganilmagan. Quyqa konsistensiyasining kritik chuqurlikka bog'liqligi, nanoslarning turbulentlikka bog'liqligini ifodalovchi ko'rsatkich bo'lishi mumkin. Konsistensiya qancha yuqoribo'lsa, kritik chuqurlik shuncha katta bo'lishi mumkin.

Nanosni muallaq holatda ushlab turish uchun ma'lum bir darajadagi turbulentlik mavjud bo'lishi kerak.

Nanoslar bilan oqim to'yingan holatda turbulentlikni oshirish uchun albatta, bu zarrachaning ma'lum masofaga uzatilishida oqimo'zining qo'shimcha energiyasini sarflaydi.

Bu Velikanov gipotezasini to'g'riligini ko'rsatadi.

Agar turbulentlikning kamayishi hisobiga qarshilikning kamayishi energiyani ma'lum miqdorini saqlab kolsa va bu miqdor quyqa tarkibidagi

nanosni ma'lum masofaga uzatishdagi toza suvning qarshiligi etarli bo'lsa, unda quyqaga qo'shimcha energiya kerak emas. Albatta, energiyaning quyqa tarkibidagi nanoslarni ma'lum masofaga uzatishdagi sarflanadigan miqdori tabiati to'g'risidagi I. I. Agroskin mulohazalari gipoteza xarakteriga eg'adir.

Gipoteza xarakteridagi bu mulohazalardan asosli nazariy fikrlarga kelishimiz uchun suyuqlik oqimi bilan nanoszarachalar o'rtasidagi munosabatlarni chuqurroq o'rganishimiz kerak. Buning uchun asosiy etiborni dala tadqiqotlariga qaratish maqsadga muvofiqdir. Masalan, Amu Buxoro Mashina va Qarshi Magistral kanallarining mos ravishda boshlanish va kirish uchastkalarida olib borilayotgan gidromexanizatsiya ishlari bunga ancha real imkoniyat beradi. Mukammal o'tkazilgan tadqiqot ishlarigina nanoslar bilan to'yingan oqim harakatining nazariy asosini yaratishga asos beradi. Bu nazariy asoslardan gidravlik hisoblarni bajarishda ko'llaniladigan aniq echim beradigan amaliy ifodalarni olish mumkin.

Shu sababli, hozirgi davrda pulpovodning gidravlik hisobini bajarishda taqribiy xarakterdagi usullar haqida fikr yuritishimiz mumkin.

Bunda gidrotexnika amaliyotida qo'llaniladigan shunday uslublar haqida fikrlar yuritamiz.

18. 2. NAPORSIZ PULPOVODLARNING GIDRAVLIK HISOBI

Naporsiz pulpovodlarning gidravlik hisobini bajarishda quyqaning o'rtacha tezligi kritik chuqurlikdan katta yoki teng qiymatlarida toza suv oqimining ochiqo'zanlardagi harakatiga ta'luqli formulalardan foydalanish o'rinli ekanligini inobatga olib, buning uchun kritik chuqurlikni aniqlaymiz.

Tajriba ma'lumotlariga asosan naporsiz pulpovodlarda harakatlanayotgan quyqaoqimning kritik chuqurligi quyidagi formula asosida aniqlanishi mumkin:

$$\frac{v_{kp} - v_{\partial}}{W_{\dot{y}p}} = f\left(p, \frac{D_{\dot{y}p}}{R}\right) \quad (18.1)$$

bunda v_{∂} – nanosning qo‘zg‘alish tezligi; $W_{o‘r}$ – qattiq materialning o‘rtacha gidravlik kattaligi; $D_{o‘p}$ – qattiq material zarrachalarining o‘rtacha diametri; R – gidravlik radius; p – quyqa konsistensiyasi – qaralayotgan gidrokorishma tarkibidagi qattiq material massasining shu gidroaralashmadagi suv massasiga nisbati,

$$p\% = \frac{K}{C} \cdot 100 \quad (18.2)$$

K – qattiq massa, S – quyqa birlik xajmidagi suv massasi,

Bu ifodada berilgan nanosning muallaqlashtiruvchi tezligi uning o‘zan tubidan ko‘zg‘alish tezligiga nisbatan yuqori deb faraz kilib, keltirib chiqarilgan I. I. Levining yuvilish tezligi formulasiga tajriba ma’lumotlari asosida V. S. Knoroz o‘zgartirish kiritib, quyidagi formulani olgan:

$$v_{\partial} = 3,5\sqrt{gD} \lg \frac{R}{4D_{\dot{y}p}} \quad (18.3)$$

Unga asosan kritik tezlikni quyidagicha aniqlash mumkin:

$$v_{kp} = 3,5\sqrt{gD_{\dot{y}p}} \lg \frac{R}{4D_{\dot{y}p}} + W_{\dot{y}p} f\left(p_1 \frac{D_{\dot{y}p}}{R}\right) \quad (18.4)$$

Quyqa konsistensiyasining 72,8% ko‘rsatkichi bo‘lganda trapetsiya shaklli lotoklarda o‘tkazilgan tajribalar asosida kritik tezlikni quyidagi formula asosida aniqlash mumkinligini taklif etgan:

$$v_{kp} = 3 \left[\sqrt{gD_{\dot{y}p}} \lg \frac{R}{4D_{\dot{y}p}} + W_{\dot{y}p} p^{0,25} \left(\frac{R}{D_{\dot{y}p}}\right)^{0,4} \right] \quad (18.5)$$

Agar quyqato‘g‘ri turtburchak shaklidagi lotoklarda harakatlanayotgan bo‘lsa, bunday holatda uning kritik tezligi G. N. Roer formulasiga asosan aniqlanishi mumkin:

$$v_{kp} = 11,2 \frac{h_k^{0,473} [(\gamma_k - \gamma) W_{\dot{y}p}]^{0,326}}{(1 - 2\eta)^{0,147}} \frac{\gamma_{III}}{\Delta^{0,17}} \left(\frac{D_{\dot{y}p}}{D_{max}} \right)^{0,2} \quad (18.6)$$

bunda h_k – oqimning tezligi $v = v_{kr}$ bo‘lgan holat uchun lotokdagi oqim chuqurligi;

$\eta = h_k/b$; b – lotok kengligi, m;

$\left(\frac{D_{\dot{y}p}}{D_{max}} \right)^{0,2}$ – quyqani tashkil etuvchi qattiq massaning kattaligi bo‘yicha

bir bosqichni hisobga oluvchi tuzatish koeffitsienti;

D_{max} – grunt mexanik tarkibidagi fraksiyaning maksimal diametri, m;

Δ – g‘adir-budirlikning absolyut kattaligi, m;

γ_k – quyqaning xajmiy og‘irligi;

γ_{III} – quyqa tarkibida qattiq tarkibning xajmiy og‘irligi;

W – o‘rtacha muallaqlashgan zarracha diametriga asosan aniqlanadigan o‘rtacha gidravlik kattalik, m/s;

1) agar o‘rtacha muallaqlashgan zarracha diametri $D_{\dot{y}p} < 1,5\text{mm}$ bo‘lsa, Roer formuladagi $W_{\dot{y}p}$ kattalik 18. 1-jadvaldan aniqlanadi;

2) agar $D_{\dot{y}p} > 1,5\text{mm}$ bo‘lsa, bu kattalik quyidagi ko‘rinishga ega bo‘lsa, V. N. Goncharov formulasiga asosan aniqlanishi mumkin:

$$W = 33,1 \sqrt{\frac{\gamma_{III} - \gamma}{\gamma}} D, \text{ sm/sek} \quad (18.7)$$

bunda γ – suvning xajmiy og‘irligi.

D, mm	$W, sm/sek$	D, mm	$W, sm/sek$	D, mm	$W, sm/sek$	D, mm	$W, sm/sek$
0,01	0,007	0,35	3,78	0,90	8,75	3,25	20,10
0,03	0,062	0,40	4,32	0,95	9,06	3,50	20,85
0,05	0,178	0,45	4,86	1,00	9,44	3,75	21,55
0,08	0,443	0,50	5,40	1,24	11,50	4,00	22,25
0,10	0,692	0,55	5,94	1,50	12,56	4,25	22,95
0,13	1,160	0,60	6,48	1,75	13,92	4,50	23,65
0,15	1,557	0,65	7,02	2,00	15,29	4,75	24,30
0,18	1,740	0,70	7,32	2,25	16,62	5,00	24,90
0,20	2,16	0,75	7,70	2,50	17,65		
0,25	2,70	0,80	8,07	2,75	18,50		
0,30	3,24	0,85	8,40	3,00	19,25		

Quyqaning xajmiy og'irligini quyidagicha aniqlash mumkin:

$$\gamma_{\kappa} = \frac{K + C}{\frac{K}{\gamma_{\text{III}}} + \frac{C}{\gamma}} \quad (18. 8)$$

bunda $\frac{K}{C} = p$ ekanligini inobatga olib,

$$\gamma_{\kappa} = \frac{p+1}{\frac{p}{\gamma_{\text{III}}} + \frac{1}{\gamma}} \quad (18. 9)$$

Bunga asosan quyqa konsistensiyasi uchun

$$p\% = 100 \frac{\gamma_{\kappa} - \gamma}{\gamma_{\text{III}} - \gamma_{\kappa}} \frac{\gamma_{\text{III}}}{\gamma} \quad (18. 10)$$

Bu keltirilgan ifodalar (18. 6) G. N. Roer formulasi quyqa konsistensiyasini to'liq hisobga olishini ko'rsatadi.

V. S. Knoroz formulasida esa nisbiy g'adir-budirlikni kritik tezlik kattaligiga ta'siri D_{yp}/R nisbat orqali hisobga olinadi, bunda g'adir-budirlikning absolyut kattaligi $\Delta = D_{yp}$ deb olinadi.

G. N. Roer formulasida Δ ixtiyoriy kattalikka ega bo'lgan harakat sifatida qatnashgan.

Albatta, shuni ta'kidlash kerakki, g'adir-budirlik tepachalarining balandliklari, turbulent aralashish darajasini oshiradi, bu o'z navbatida nanoslarning muallaqlashishini ta'minlaydi. Bu g'adir-budirlik tepachalarining kattalashishi kritik chuqurlikni kamayishiga olib keladi.

V.S.Knoroz va G. N. Roer formulalaridan foydalanib, **nanos** zarrachalarini muallaqlashgan holda tashuvchi naporsiz pulpovodning gidravlik hisobini bajarishimiz mumkin.

Bunda berilgan boshlang'ich ma'lumotlarning xarakteriga qarab, quyidagilarni aniqlashimiz mumkin:

- pulpovod nishabligini i ;
- pulpovod ko'ndalang kesimi o'lchamlaridan birini va inishablikni;
- pulpovod ko'ndalang kesimining o'lchamlarini;
- quyqa konsistensiyasini;

Kritik tezlik V. S. Knoroz va P. N. Roer formulalari yordamida hisoblanishi mumkin.

Agar pulpovoddagi quyqa tezligi $v \geq v_{kp}$ bo'lsa, nishablik Shezi formulasi yordamida aniqlanadi:

$$i = \frac{v^2}{C^2 R} \quad (18.11)$$

1-masala.

Agar quyqa sarfi Q_k berilgan bo'lib, pulpovod ko'ndalang kesimi o'lchamlari berilmagan bo'lsa, masalada h yoki b kattalikni hisoblashga to'g'ri

kelmaydi. Buning uchun oqimning tekis harakati uchun kanallarni gidravlik loyixalashtirishdagi kabi ish tutiladi. $v = v_{kp}$ deb qabul qilinadi, yuqoridagi keltirilgan formulalardan foydalanib, kritik tezlik hisoblanadi.

$$Q_k = \omega v_{kp} = 3\omega \left[\sqrt{gD_{\dot{y}p}} \lg \frac{R}{4D_{\dot{y}p}} + W_{\dot{y}p} p^{0,25} \left(\frac{R}{D_{\dot{y}p}} \right)^{0,4} \right] \quad (18.12)$$

Ma'lum $D_{\dot{y}p}$, $W_{\dot{y}p}$, p, b va m kattaliklar uchun, lotok pulpovodning $Q_k = f(h)$ ishchi xarakteristikasini tuzamiz.

Bu bog'liqlikka asosan egrilikni quramiz, $h = h_k$ va v_{kp} , nihoyat nishablik (i)ni aniqlaymiz.

2-masala.

Pulpovodning nishabligi, geometrik o'lchamlari berilgan holat. Bunday holatda gidravlik hisoblashni gidravlik radiusning ma'lum qiymatlari ko'rinishiga keltirib, keyin boshlaymiz:

$v = v_{kp}$ deb qabul kilib, quyidagiga ega bo'lamiz:

$$i = \frac{v_{kp}^2}{C^2 R} = \frac{9}{C^2 R} = \left[\sqrt{gD_{\dot{y}p}} \lg \frac{R}{4D_{\dot{y}p}} + W_{\dot{y}p} p^{0,25} \left(\frac{R}{D_{\dot{y}p}} \right)^{0,4} \right]^2 \quad (18.13)$$

Ma'lum, R uchun geometrik o'lchamlar aniqlanadi. Bundan tashkari quyqani ma'lum bir masofaga chiqarib tashlash masalasi ham gidrotexnika amaliyotida asosiy dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Chunki, bu masofa shunday kattalikka ega bo'lishi kerakki, shart bajarilganda yig'iladigan massaning suv olish ishlari bajarilayotgan daryoning shu soxasidagi gidravlik, gidrologik jarayonlariga ta'siri kam bo'lishi kerak. Masalan, deformatsion jarayonlar deyarli o'zgarmasligiga erishish zarur.

Buning uchun quyqaning ma'lum konsistensiyasi va qattiq zarrachani muallaqlashtiruvchi gidravlik kattaligi uchun u katta nishablikdagi pulpovoddan

yuqori tezlikda harakatlanishi kerak. Bunday holatda berilgan pulpovodning geometrik o'lchamlari, nishabligi va quyqa tezligiga qarab, quyqa konsistensiyasini aniqlash masalasi paydo bo'ladi.

Yana V. S. Knoroz formulasiga murojaat kilamiz, undan quyidagini aniqlaymiz:

$$p = \left[\frac{1}{W_{\dot{y}p}} \left(\frac{v_{kp}}{3} - \sqrt{gD_{\dot{y}p}} \lg \frac{R}{4D_{\dot{y}p}} \left(\frac{R}{D_{\dot{y}p}} \right)^{0,4} \right) \right]^4 \quad (18.14)$$

Shu formula asosida aniqlangan qattiq massa miqdori muallaqlashgan holda ma'lum masofaga tashab olib borilishi mumkin. Bu formula r ning $\frac{v_{kp}}{v_{\partial}} = 3 \div 4$ munosabatga mos keluvchi qiymatlari uchun konikarli natija berishi mumkin. Bundan tashkari quyqaning ma'lum tezligi va chuqurligi qiymatlari uchun P. N. Roer formulasidan foydalanib quyqa xajmiy og'irligini hisoblash mumkin va (18. 4) formula yordamida quyqa konsistensiyasini aniqlash mumkin.

18. 3. NAPORLI PULPOVODLARNING GIDRAVLIK HISOBI

Quyqaning naporli pulpovodlardagi harakati, oqimning ochiqo'zanlardagi harakatiga ancha o'xshash. Quyqa tarkibidagi qattiq massa tubiga cho'kmasdan muallaqholatda va tubgacho'kib, tub bo'ylab surilib harakatlanishi mumkin. Bunday holatda hamnanosning muallaqlashishiga mos keluvchi eng kichik tezlik *kritik tezlik* deb ataladi. Bu tezlikka mos keluvchi sarf *quyqaning kritik sarfi*— Q_k deb ataladi.

Bu ikkala kattaliklar qiymatlarining miqdori gidrotexnika amaliyotida muhim ahamiyatga ega. V. S. Knoroz, G. N. Roer, A. P. Yufin tadqiqotlari natijalari nanoslar quyqa tarkibida muallaqholatda harakatlanganda, quyqa ularni tashiyotganda qo'shimcha energiya sarflanmasligini ko'rsatgan. SHu

sababli, ayrim hollarda quyqa gidravlik qarshiligini ko'rsatuvchi ustun balandligiga mos keluvchi tezlikning kritik qiymati, toza suv harakatidagi gidravlik qarshilikni ko'rsatuvchi ustun balandligiga mos keluvchi eng kichik tezlik kabi aniqlanadi.

Bunga asosan, naporli pulpovod $v \geq v_{kp}$ holat uchun hisoblanadi. Lekin, tezlikning oshishi truboprovoddagi qarshilikni engish uchun sarflanadigan napor miqdorini keskin oshishiga olib keladi. SHuning uchun pulpovodlar hisobida $v = v_{kp}$ shart bajarilib, hisoblash yuritiladi.

Kritik sarf va tezlikning son qiymatlarini aniqlash uchun bir necha empirik formulalar taklif etilgan. Masalan, V. S. Knoroz formulasi:

$$v_{kp} = 3 \left[\sqrt{gD_{\dot{y}p}} \lg \frac{d}{16D_{\dot{y}p}} + W_{\dot{y}p} p^{0,25} \left(\frac{d}{4D_{\dot{y}p}} \right)^{0,4} \right] \quad (18. 15)$$

$$Q_k = 2,36d^2 \left[\sqrt{gD_{\dot{y}p}} \lg \frac{d}{16D_{\dot{y}p}} + W_{\dot{y}p} p^{0,25} \left(\frac{d}{D_{\dot{y}p}} \right)^{0,4} \right] \quad (18. 16)$$

bunda d – sarf Q_k bo'lgandagi oqim tezligi v_{kp} mos keluvchi pulpovod diametri.

Naporli pulpovodlarni hisoblashda G. N. Roer formulalaridan ham foydalanishimiz mumkin. Keltirilgan formulalar bizga v_{kp} yoki Q_k kattaliklarni aniqlash imkoniyatini beradi. $Q_k = Q_{kp}$ holat uchun (18. 16) formula yordamida d_{kp} – pulpovodning kritik sarfini o'tkazuvchi diametri tanlab olish usuli yordamida aniqlanadi. Pulpovodning ma'lum Q_k sarfiga mos keluvchi d_{kp} diametri aniqlangandan so'ng pulpovodning gidravlik hisobi naporning yo'qolishini aniqlash formulalari yordamida olib boriladi yoki

$$h_{\dot{u}} = \frac{Q_k^2 l}{K^2} \quad (18. 17)$$

$$I = \frac{\lambda l v_{kp}^2}{d 2g} \quad (18.18)$$

Agar pulpovod diametric ma'lum bo'lsa, $Q_k = Q_{kp}$ sarf yuqoridagi formulalar yordamida aniqlanib, keyin $h_{\bar{u}}$ aniqlanadi.

A. P. Yufinesa quvurning tubiga quyqaning tarkibidagi nanoslarning cho'kaboshlshiga mos keluvchi tezlikni *kritik tezlik* deb nomlagan. Demak, bu tezlik **nanos bosish** tezligiga mos keladi. Uning tajribalari natijasi aniq bir konsistensiyali quyqaning ishtezligida napor yo'qolishi eng kichik qiymatga mos kelganligini ko'rsatgan. O'z tajribalari natijalariga asoslanib quyqaning naporli po'lat quvurlarda harakati uchun kritik tezlikni aniqlash formulalarini taklif etgan.

$$v'_{kp} = 0,2d^{0,54} e^{\alpha\sqrt{\bar{\gamma}_c}} \frac{D_{yp}^{0,65}}{\delta^{0,125}}, \quad (d \leq 200 \text{ mm holat uchun}) \quad (18.19)$$

$$v'_{kp} = 9,8 \sqrt[3]{\frac{\omega_{yp}^{0,25}}{\delta^{0,125}}} \left(\frac{\lambda_c}{\lambda} - 0,4 \right), \quad (d > 200 \text{ mm holat uchun}) \quad (18.20)$$

bundan

$$Q'_{kp} = 0,157 d_{kp}^{2,54} e^{\alpha\sqrt{\bar{\gamma}_c}} \frac{D_{yp}^{0,65}}{\delta^{0,125}}, \quad (d \leq 200 \text{ mm holat uchun}) \quad (18.21)$$

bunda $\alpha = \frac{2,86}{D_{yp}^{0,13}}$

D_{ur} – nanoslarning o'rtacha diametri, *mm*;

$\bar{\gamma}_c$ – gidroaralashma (quyqa)ning sarfiy solishtirma og'irligi;

d – quvur diametri, *m*;

e – natural logarifmning asosi;

δ – bir jinslilik emaslik koeffitsienti; $\delta = \frac{D_{90}}{D_{10}}$;

D_{90} – 0 dan 90 % gacha bo'lgan zarachalarning og'irligiga mos keluvchi zarrachalardiametri;

D_{10} – 10% ga mos keluvchi zarralar diametri.

Bir jinslilik mosligi koeffitsienti bu formulaga $\delta > 3$ bo'lganda kiritiladi. $\delta > 3$ bo'lganda gruntlar bir jinsli deb hisoblanib, $\delta = 1$ deb qabulqilinadi.

A. P. Yufin gidroaralashmaning sarfiy solishtirma og'irligi deb, **gidroslivning** quvur ichidagi solishtirma og'irligidan farqqiluvchi chiqishdagi solishtirma og'irligini atagan. Bu farq suyuqlik bilan **nanoslar** tezligi o'rtasidagi tafovut hamda harakatdagi kesim bo'ylab nanoslar taqsimlanishini notekisligi hisobiga paydo bo'lishligi e'tirof etgan.

Sarfiy solishtirma og'irlik va quyqaning xajmiy konsistensiyasi o'rtasidagi farq

$$\bar{\gamma}_c = \frac{U}{Q}(\bar{\gamma}_{\text{тн}} - \bar{\gamma}) + \bar{\gamma} \quad (18.22)$$

bunda U – quyqa tarkibidagi nanoslarning xajmiy sarfi;

Q – suyuqlik sarfi

O'z navbatida quyqaning og'irlik konsistensiyasini $p = \frac{K}{C} = \frac{p\%}{100}$

quyidagicha ifodalash mumkin:

$$p = \frac{\bar{\gamma}_{\text{тн}} U}{\bar{\gamma} Q} \quad (18.23)$$

Bundan

$$\bar{\gamma}_c = p(\bar{\gamma}_{\text{тн}} - \bar{\gamma}) \frac{\bar{\gamma}}{\bar{\gamma}_{\text{тн}}} + \bar{\gamma} \quad (18.24)$$

U holda (18. 19) va (18. 20) formulalar $D=0,1 \div 10$ m o'lchamli zarrachalar tanlanayotgan holat uchun o'rinalidir. Quyqaning v'_{kp} tezlikdagi harakatida napor yo'qolishi toza suv holatidagi yo'qolishdan farqqilganligi sababli, A. P. Yufin napor yo'qolishi uchun quyidagi formulani taklif etgan:

$$I_{kp} = \bar{\gamma}_c \beta_{kp} I \quad (18.25)$$

bunda I formula (18. 18) ifoda yordamida aniqlanadigan gidravlik nishablik;

β_{kp} – quyidagi tajribaviy qiymatga teng deb isbotlangan.

$$\beta_{kp} = 1 + \left(3,5 + 2d + 0,5\sqrt{D_{yp}} \right) \left(\frac{\bar{\gamma}_c - \bar{\gamma}}{\bar{\gamma}} \right)^{0,8} \quad (18. 26)$$

Quyqaning $v > v'_{kp}$ tezlikdagi harakatida napor yo'qolishi toza suv oqimining harakatida napor yo'qolishi kabi bo'lib, u (18. 17) va (18. 18) formula kabi aniqlanadi.

Yuqorida keltirilgan v'_{kp} va v_k kattaliklarni aniqlash formulalari tajribada kuzatilgan holatga mos keluvchi miqdorlarni beruvchi taqribiy xarakterga egadir.

Bu formulalar tarkibi ko'p zarrachalardan iborat qumli quyqalar bilan o'tkazilgan tajribalar uchun olingan. Amaliyotda quyqa tarkibida muallaklashishi boshqacha ifodalar bilan aniqlanadigan tuproq zarrachalari ham uchrashi mumkin. Tuproq zarrachalari qanchako'pbo'lsa, yuqoridagi formula bilan aniqlanuvchi tezlik shuncha miqdorga haqiqiy tezlikdan farqqilishi mumkin.

Bu barcha formulalar tarkibiga qattiq massasini xarakterlovchi kattalik W_{yp} o'rtacha gidravlik kattalik kiritiladi. Bu taqriban hisoblanganligi bois, formulalarning taqribiylik darajasi oshadi. Gidravlik kattalikka quyqa tashiyotgan nanosning turli jinlilik xarakteri ta'sir qiladi. Turli xarakterdagi bir necha jinsli gruntlar bir xil o'rtacha gidravlik kattalikka ega bo'lib, turli kritik tezlikka ega bo'lishi mumkin. Bu holatni (18. 5) formulada hisobga olib bo'lmaydi.

Yana tajribaviy empirik formulalarning aniqlik darajasi tajriba o'tkazilishining aniqlik darajasiga bog'liq. Ochiq yoki naporli pulpovodlarda zarrachaning chiqishiga mos keluvchi eng kichik – kritik tezlikni aniqlashning yuqori darajasini ta'minlash og'ir masala. Shu sababli, napor yo'qolishi toza suvnikidagi kabi qabul qilinib, shu tezlik qiymati aniqlanadi. Bu ham takribiy xarakterga ega.

Bu formulalardan gidrotexnika amaliyotida foydalanishda quyqa tarkibidagi qattiq massani pulpovodda tiqilib qolmasligi uchun formulalar yordamida hisoblangan kritik tezlik 15÷20%ga oshirib qabulqilinadi.

Namunaviy gidravlik hisob. Diametri 300 mm, uzunligi $L=140$ m bo'lgan po'lat quvurdan yasalgan pulpovoddagi napor yo'qolishi aniqlansin. Quyqa konsistensiyasi $p = 28\%$. Tanlanayotgan gruntning mexaniktarkibi 18. 2-jadvalda keltirilgan.

18. 2-jadval

D, mm	5-3	3-2	2-1	1-0,5	0,5-0,25	0,25-0,1	0,1-0,05
$m, \%$	4,21	7,34	16,25	35,27	24,13	9,32	3,48

Pulpovoddagi oqim tezligini $v = v_{kp}$ deb qabul kilamiz.

v_{kp} – Knoroz (18. 16) formuladan foydalanib aniqlanadi. Buning uchun

D_{ur} kattalikni aniqlaymiz;

$$D_{yp} = \frac{\sum D_i m_i}{100} = \frac{97}{100} = 0,97 \text{ mm}$$

bunda D_i – fraksiya zarrachasining o'rtacha diametri;

m_i – shu fraksiyaning % miqdori.

W_{yp} – kattalikni hisoblaymiz:

$$D_{yp} = \frac{\sum W_i m_i}{100}$$

bunda W_i – berilgan fraksiyaning o'rtacha gidravlik kattaligi.

Zarrachaning gidravlik kattaligi 18. 2-jadvaldan, W_i kattalikni fraksiyalar uchun 18. 3-jadvaldan foydalanib aniqlanadi

18. 3-jadval

$m_i, \%$	4,21	7,34	16,25	35,27	24,13	9,32	3,48
$W_i, sm/sek$	22,07	17,27	12,36	7,42	4,05	1,696	0,435

Sonli qiymatlarni qo'yib, hisoblaymiz:

$$D_{yp} = \frac{\sum W_i m_i}{100} = \frac{702}{100} = 7,02 \text{ sm/sek}$$

Endi (18. 16) formuladan foydalanib, kritik tezlikni vaquyqa sarfini hisoblaymiz:

$$v_{kp} = 3 \left[\sqrt{9,81 \cdot 0,00097} \lg \frac{0,30}{16 \cdot 0,00097} + 0,0702 \sqrt[4]{28} \left(\frac{0,30}{4 \cdot 0,00097} \right)^{0,4} \right] = 3,15 \text{ m/sek}$$

$$Q_k = v_{kp} \omega = 3,15 \frac{3,14}{4} 0,3^2 = 0,224 \text{ m}^3/\text{sek}$$

$v = v_{kp}$ bo'lganligi sababli, (18. 19) formula yordamida napor yo'qolishini aniqlaymiz:

$$h_{\ddot{u}} = \frac{Q_k^2}{K^2} l$$

Normal quvurlar uchun sarf xarakteristikasini qabul qilib, quyidagini hosil qilamiz

$$h_{\ddot{u}} = \frac{Q_k^2}{K^2} l = \frac{224^2}{1161,4^2} \cdot 1400 = 51,2 \text{ m}$$

XVIII bobga doir nazorat savollari

1. Hidrotransport tushunchasini izohlang.
2. Naporli va naporsiz gidrotransport nima?
3. Quyqani izohlang.
4. Quyqa konsistensiyasi nima?
5. Naporli pulpoprovodlarning gidravlik hisobi nima uchun bajariladi?
6. Naporsiz pulpoprovodlarning gidravlik hisobidan asosiy maqsadni tushuntiring.

ILOVA

Grek alfaviti

α - alfa	θ - teta	ρ - ro	Γ - gamma
β - beta	\aleph - kappa	σ - sigma	Δ - delta
γ - gamma	λ - lambda	τ - tau	Θ - teta
δ - delta	μ - myu (mi)	φ - fi	Λ - lambda
ε - epsilon	θ - nyu (ni)	χ - xi	Σ - sigma
ζ - dzeta	ξ - ksi	ψ - psi	Φ - fi
η - eta	π - pi	ω - omega	Ψ - psi
			Ω - omega

$U_0 = U_{xuc}$ – «Qurilish me'yorlari va qoidalari» (QMQ) 2. 06. 03-97 ga asosan
gidravlik radius $R = 1$ m bo'lganda, oqimning yuvmaydigan o'rtacha tezligi
($U_0, \mathcal{M}/\mathcal{C}$) ning qiymatlari

1-jadval

Grunt turi	O'rtacha tezliklar, m/s
A. Qumli tuproqlar uchun	
1. Mayda qum	0,45-0,50
2. O'rtacha kattalikdagi qum	0,50-0,60
3. Yirik kattalikdagi qum	0,60-0,75
4. Shag'al	0,75-0,90
B. Gil tuproq	0,45-0,75

QMQ 2. 06. 03-97 bo'yichasuv sarfi va grunt turiga asosan g'adir-budurlik ko'effitsienti n quyidagi jadvallardan aniqlanadi.

2-jadval

Kanalda suvning sarfi, m ³ /s	Gruntli sug'orish kanallarining "n" g'adir-budirlik koeffitsienti	
	Yopishqoq va qumlik zamin tuproqda	Shag'al-qum aralashmali va shag'al,asosi tuproq bo'lganda
25 dan yuqori	0,0200	0,0225
1-25	0,0225	0,0250
1 dan kam	0,0250	
Doimiy shaxobcha kanallari, notekis harakatli vaqtma-vaqt (notekis ishlaydigan) doimiy ishlaydigan kanallar shaxobchasi	0,0275	
Sug'orgichlar	0,0300	
Eslatma:		
1. Sug'orish kanallari uchun belgilangan g'adir-budirlik koeffitsientining ahamiyatiga nisbatan suv yig'uvchi – suv tashlagich kanallar uchun g'adir-budirlik koeffitsientining ahamiyati 10 % ga oshiriladi va jadvalda ko'rsatilgan ahamiyatga keltirib, qabul qilinadi		
2. Mavsumiy ravishda bajariladigan kanallar uchun va kanalning ko'ndalang kesimi ishlar hajmini oxiriga etkazishga bog'liqlikda g'adir-budirlik koeffitsientining ahamiyati 10-20% ga oshirilib qabul qilinadi		

3-jadval

Kanal o'zan sirtining xarakteristikasi (xususiyati)	Skal gruntli kanallarning "n" g'adir-budirlik koeffitsienti
